
“Sog‘lom tanda-sifatli ta‘lim” shiori ostida o‘tkazilgan sport musobaqalari tuman bosqichi g‘oliblari aniqlandi

Rishton tumanida “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘qituvchi-murabbiylari o‘rtasida “Sog‘lom tanda – sifatli ta‘lim” shiori ostida Kasaba uyushmsi kubogi sport musobaqalari tuman bosqichi g‘oliblari aniqlandi va viloyat bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdilar.

Musobaqa o‘tkazish Nizomiga asosan, ishtirokchilar sportning voleybol, mini futbol, shaxmat, shashka va stol tennisi kabi turlari bo‘yicha o‘zaro bahslashdilar.

Hakamlar qaroriga asosan, g‘oliblikni

????sportning mini-futbol turi bo‘yicha 2- umumta‘lim maktabi jamoasi,

????voleybol bo‘yicha 14-umumta‘lim maktabi jamoasi, ■shaxmat turi bo‘yicha 20 maktab o‘qituvchisi Rajabov Umarali va 8- maktab o‘qituvchisi Aslonboyeva Nigina. □shashka turi bo‘yicha erkaklar o‘rtasida 53-maktab o‘qituvchisi Adxamov Obidjon, ayollar 61- maktab Homidova Muxtasar.

????stol tinnisi bo‘yicha esa erkaklar Rishton ixtisoslashgan maktab o‘qituvchisi Soliyev Hasanjon va ayollar 51- maktab o‘qituvchisi To‘xtaboyeva Odinaxonlar egallab, musobaqalarning viloyat bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdilar.

Musobaqada ishtirok etgan sektorlardan kelgan tumandagi barcha umumta‘lim muassasalarining sport jamoalariga tashkiliy qo‘mita o‘z minnatdorchiligini bildiradi. G‘oliblardan esa viloyat bosqichida faol ishtirok etishlarini so‘rab , "Kasaba uyushma kubogi"ni qo‘lga kiritishlarini tilaymiz.

2024-04-27 14:03:54